



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA
MUASASSA VA OTA-ONA HAMKORLIGI

Xakimov Abbosxon Oribjon o'g'li

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi ham milliy, ham umuminsoniy xarakterga ega ekanligi, ta'lim muammosi - bu shaxslar, oilalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, oilalar va mahalliy jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlar ekanligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, ta'lim, integratsiya, oila, uzluksiz ta'lim, qiymat, barkamol avlod, hamkorlik.*

Аннотация: *В данной статье подчеркивается тот факт, что идея воспитания гармонично развитого поколения имеет как национальный, так и универсальный характер, проблема образования - это взаимоотношения индивидов, семей, НПО с семьей и местным сообществом.*

Ключевые слова: *образование, интеграция, семья, продолжая образование, значение, гармонично развитое поколение, сотрудничество;*

Annotation: *This article emphasizes the fact that the idea of educating a harmoniously developed generation has both a national and a universal character, the problem of education is the relationship of individuals, families, NGOs with the family and the local community.*

Keywords: *Education, education, integration, a family, continuing education, value, harmoniously developed generation, cooperation;*

KIRISH.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimi va mazmunini takomillashtirish, uni davr talablari bilan uyg'unlashtirish yo'lidagi islohotlar jadal sur'atlar bilan davom etmoqda. Uzluksiz ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimi ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bosqichdir. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish dolzarb muammo sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan maktabgacha ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, bolalar qamrovini oshirish va bu orqali ayollar - onalarni ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga juda katta e'tibor qaratilmoqda.



Prezidentimizning ...bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi.

Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat, degan so'zlari fikrimizning yaqqol dalilidir.

Shuningdek, yurtboshimiz Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutqida bu masala haqida so'z yuritib: "...men "bog'chaga borgan bola bilan bog'chaga bormagan bolaning o'rtasida katta farq bor", degan fikrni, hayotiy haqiqatni takror-takror aytishdan, uni hamma joyda da'vat qilishdan charchamayman. ..."Bog'chaga borgan bolaning onasi bilan bog'chaga bormagan bolaning onasi o'rtasida ham katta farq bor".

Chunki har kuni tarbiyachilar, pedagog mutaxassislar, psixologlar, tibbiyot xodimlari bilan muloqotda bo'lib, bolasidagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rib, onalarning ham bilimi, hayotiy tajribasi, madaniy saviyasi oshadi.

Bolalari bilan birga ular ham ijtimoiy-ma'naviy tarbiya muhitiga, jamiyatga yaqinlashadi, faollashadi. Shularning barchasini hisobga olib, biz maktabgacha ta'lim sohasiga ulkan e'tibor bermoqdamiz", - deb ta'kidlaydi.

MTTlarining oila va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalarni o'rnatish zaruriyati hozirgi paytda dolzarb bo'lib qolmoqda. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilarning oilalar bilan kuchli hamkorligi bolalarning rivojlanishi va ta'lim olishiga ijobiy ta'sir etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ushbu hamkorlikni MTTlarida berilayotgan ta'limni kuchaytirish va kengaytirish, shuningdek, uyda va jamiyatda sodir bo'layotgan qiziqish va ta'limni rivojlantirish uchun zarur ishonchga asoslanadi.

Darhaqiqat, tarbiyachilar va ota-onalarning bola ongiga ta'siri qarama-qarshi bo'lmasligi, aksincha uyg'unlashgan, bir-birini to'ldirgan holda, bola tomonidan ijobiy va faol tarzda qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi ham milliy, ham umuminsoniy xarakterga ega bo'lib, u bashariyatni ma'naviyat va ma'rifatga, ezgulik va yuksaklikka olib boruvchi komillik sari yo'ldir.

Shu sababli ham insoniyat paydo bo'libdiki, tarbiya masalasi kishilar, oilalar, jamoalar, davlatlar oldida muhim muammo bo'lib kelmoqda va ular ko'p variantli yo'llar, vositalar bilan turlicha shakllarda, uslublarda amalga oshirilmoqda.

Aslida bola tarbiyasi ona qornidaligi paytidayoq boshlanmog'i lozim. Shu sababli ham jismonan baquvvat, ma'nan yetuk insonlar doimo ulug'lanib kelingan va hattoki, jismonan baquvvat insonlarga polvon hamda jismonan, ma'naviy yetuk insonlarga pahlavon deb nom berilgan.

Shaxsning har tomonlama shakllanishida maktabgacha yoshi o'ziga xos ahamiyatga ega davr sanaladi. Shuning uchun ham bizning mamlakatimizda 3-7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash masalasiga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Barkamol avlod tarbiyasida oila va ta'lim tashkilotlari hamkorligi jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit barqarorligining asosiy omili sanaladi.



Shu bois mamlkatimizda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi va mazmunini takomillashtirishda o'zaro hamkorlikka tayanish zaruriyati paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ...homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish; aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish konsepsiya va chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab berildi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risidagi qarorlari qabul qilingandan so'ng, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning zamonaviy tizimini joriy etish zaruriyati yuzaga chiqqan boshladi.

Bu ota-onalar bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish uchun javobgardir va boshqa barcha ijtimoiy institutlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga va to'ldirishga chaqiriladi degan fikrga asoslanadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, maktabgacha ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirish oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti integratsiyasi asosida amalga oshirilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida ham maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari qatorida alohida ta'kidlab o'tilgan.

Xulosa.

Bugungi kunda ota-onalarning bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobiy jihatlari va foydasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish darajasini pasaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Shuning uchun maktabgacha ta'limning bola shaxsini shakllantirishdagi roli va muhimligi haqida tushuntirish tadbirlarini olib borish, ushbu faoliyatga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik va ota-onalarni faol jalb qilish bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish va ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirish imkonini beradi.

MTTning oila bilan hamkorligi bo'yicha ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo'lishi kerak.

Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avval erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, xilma-xil va o'zaro bog'liq bo'lgan shakl va usullar yordamida rejali va izchil ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlari, milliy-ma'naviy madaniyati, o'z mustaqilligini mustahkamlash borasida barcha fuqarolarimiz baholi qudrat harakat qilayotgan hozirgi



davrida har bir ota-onaning bola tarbiyasi va rivojlanishi, uning kelajagi haqidagi ilmiy-pedagogik bilimlarini takomillashtirish davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HAKAKATLAR STRATEGIYASI. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947- sonli Farmoniga 1-ILOVA.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevni 2020-yil 29 dekabr kuni oliy majlis va xalqimizga qilgan murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
3. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni. 2019 yil 16 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PK-4312-son qaroriga 1-ilova.